BIR ONA - BIR UMRLIK TARBIYA

Solijonova Gulhayo Orifjon qizi
O’zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: "Bir ona - bir umrlik tarbiya" maqolasi onalik mehrining bola taqdiridagi chuqur va o'chmas izini ilmiy va ruhiy tahlil asosida ochib beradi. Maqolada ona va bola o'rtasidagi psixologik bog'liqlik, genetik omillarning tarbiyadagi o'rni hamda ona munosabati va namunasining farzand kelajagiga ta'siri yoritiladi. Buyuk shaxslar ortida turgan dono va fidoyi onalar hayoti misolida onaning jamiyatni tarbiyalovchi kuch ekani asoslanadi. Shuningdek, bugungi kunda qizlarning ta’limiga to’sqinlik qilayotgan qarashlarga ilmiy asoslangan fikrlar bilan murojaat qilinadi va ota-onalarga masuliyatli tavsiyalar beriladi.

Mazkur maqola ota- onalar, pedagoglar hamda tarbiya masalasiga befarq bo'lmagan keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Ona va tarbiya, bola psixologiyasi, genetik omillar, onaning roli, qizlar ta'limi, shaxs kamoloti, buyuk shaxslar onalari, pedagogik maslahatlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Farzand tarbiyasida onaning roli masalasi psixologiya, pedagogika va genetika fanlarida keng o’rganilgan. Shu bois ushbu maqolada psixolog Jon Bowlbyning ona va bola o’rtasidagi bog’lanish nazariyasidan, Pedagogika asoslari kitobidan va genetika ba epigenetika sohasidagi taqdiqotlardan va mavzuga doir internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo’lanildi.

Tarbiya insonning insoniyligini ta'minlaydigan qadimiy va abadiy qadriyatdir. Yuksak qadriyatlar tarbiya orqali avloddan avlodga o'tadi. Shuningdek bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida shaxs tarbiyasi muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning shaxs sifatida shakllanishida onaning psixologik ta’siri, emotsional yaqinligi va tarbiyaviy yondashuvi muhim ro’l o’ynaydi. Shuni ta’kidlash joizki inson hayotidagi eng birinchi maktab ham bu onaning bag’ridir. U yerda na qo’ng’iroq chalinadi, na baho qo’yiladi, ammo aynan shu maktabda butun umrga yetadigan saboqlar beriladi. Bir ona bergan tarbiya bir umr insonning yurishi , fikrlashi, va tanlovlarida aks etadi. Shu bois bola tarbiyasi masalasi faqat oilaviy masala emas, balki jamiyat kelajagini belgilovchi muhim omildir. Shuningdek Abdurauf Fitrat ham “ Oila” asarining “Farzand tarbiyasi” bo’limida **“ Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo’lishi, baxtli bo’lib izzat-hurmat topishi, Jahongir bo’lishi, zaif bo’lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib , baxtsizlik yukini tortib, e’tibordan qolishi, o’zgalarga tobe, qul va asir bo’lishi bolalikdan o’z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog’liq”** deb bejiz keltirib o’tmagan.

Bundan ko’rinib turibdiki, farzandni komil inson bo’lib, jamiyatga foyda keltiradigan shaxs sifatida tarbiyalash har bir ota-ona oldidagi eng katta mas’uliyat hisoblanadi.

Psixologiya fanida onaning farzand tarbiyasidagi o’rni shaxs shakllanishining markaziy omili sifatida e’tirof etiladi. Bola dunyoni ilk bor onaning nigohi, ohangi va munosabati orqali anglay boshlaydi. Psixolog Jon Bowlby tomonidan ishlab chiqilgan bog’lanish (attachment) nazariyasiga ko’ra, ona bilan o’rnatilgan ilk emotsional aloqa bolaning butun hayoti davomida o’ziga va atrofdagilarga bo’lgan munosabatini belgilaydi. Mehr, xavfsizlik va barqarorlikni his qilgan bola o’ziga ishonchli, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy jihatdan moslashuvchan bo’lib ulg’ayadi. Aksincha sovuq munosabat, doimiy tanqid yoki beparvolik muhitida ulg’aygan bolalarda xavotir, agressiya, o’ziga ishonchsizlik kabi holatlar ko’proq kuzatiladi. Psixologlar ta’kidlashicha, onaning bolaga nisbatan aytgan so’zlari va ko’rsatgan munosabati vaqt o’tib bolaning ichki ovoziga aylanadi. Shuningdek bolaning hissiy intelekti-ya’ni his tuyg’ularini anglash va boshqarish qobilyati ham asosan onaning emotsional namunasiga qarab shakllanadi. Ona o’z hislarini sog’lom ifodalay olsa, bola ham shuni o’rganadi. Shu bois onaning ruhiy holati faqat o’ziga emas, balki farzandning kelajagiga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Genetika fani tarbiyada faqat irsiyat emas, balki gen va muhit o’zaro ta’siri muhimligini ta’kidlaydi. Bola genlarining yarmi onadan o’tsada, genlarning faalloshuvi ko’p jihatdan onaning homiladorlik davridagi ruhiy holati, stress darajasi, ovqatlanish va turmush tarziga bog’liq bo’ladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, homiladorlik davrida doimiy stress holatida bo’lgan onalarning farzandlarida doimiy xavotirga moyillik, diqqat buzilishi va emotsional beqarorlik ehtimoli yuqoriroq bo’ladi. Aksincha, ijobiy ruhiy muhitda kechgan homiladorlik bolaning asab tizimi sog’lom shakllanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tug’ruqdan keyin ilk yillarda bolaning asosiy pavarishlovchisi ona bo’lganligi sababli, uning munosabati bolaning miyya rivojiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Nevropsixolog tadqiqotlarga ko’ra, mehr va xavfsizlik muhiti bolaning o’rganish, xotira va tafakkur bilan bo’g’liq miyya markazlarining faol rivojlanishiga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda ona nafaqat genlarni uzatuvchi, balki ularning qanday namoyon bo’lishini belgilovchi asosiy muhit yaratuvchi shaxsdir.

Pedagogika fanida ham ona birinchi pedagog, bola esa birinchi o’quvchi sifatida talqin etiladi. Chunki yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek bola hayotidagi dastlabki bilim, ko’nikma va qadriyatlarni maktabdan emas, balki oiladan, aniqrog’i onadan oladi. Pedagogik yondashuvga ko’ra, tarbiya - bu faqat nasihat emas, balki doimiy, tizimli va namuna asosidagi ta’sirdir. Ona pedagog sifatida bolaning yosh, individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiya berishi zarur. Pedagodika shuni ta’kidlaydiki bolaga berilgan har bir bilim va talab uning rivojlanish bosqichiga mos bo’lsa, tarbiya samarali bo’ladi. Aks holda ortiqcha bosim yoki befarqlik bolaning o’qishga va o’ziga bo’lgan munosabatini susaytiradi.

Pedagogika nazariyasida samarali ta’lim quyidagi asosiy tamoyillarga tayanganidek, ona tarbiyasida ham aynan shu tamoyillar muhim hisoblanadi:

1.Individual yondashuv

Har bir bola - alohida shaxs. Ona pedagog sifatida bolaning qobilyati, qiziqishi, fe’l atvorini hisobga olishi lozim. Bir bolaga mos kelgan uslub boshqasiga to’g’ri kelmasligi mumkin.

2.Namuna bo’lish

Pedagogikada eng kuchli ta’lim vositasi-shaxsiy namuna. Tarbiya orqali emas, albatta xulq orqali namuna bo’la olish kerak. Masalan ona kitob o’qisa, bola o’qishga qiziqadi, ona muomilada madaniyatli bo’lsa, bola ham shunga intiladi. Chunki bola ko’proq eshitganini emas, ko’rganini takrorlaydi.

3.Rag’bat va motivatsiya

Pedagogika jazodan ko’ra rag’batni samaraliroq deb hisoblaydi. Kichik yutuqni e’tirof etish, har bir harakatni qadrlash bolada ichki motivatsiyani shakllantiradi.

4.Muloqot va tushintirish

Pedagog ona buyruq bermaydi, tushintiradi. Qo’rqitmaydi, ishontiradi. Savol berish, fikrni eshitish esa bolaning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

5.Talab va mehr muvozanati

Pedagogik jihatdan eng to’g’ri yondashuv- mehr va talab muvozanati. Faqat talab qilish qo’rquvga olib keladi, faqat erkalash esa masuliyatsizlikka.

6. Mustaqillika o’rgatish

Zamonaviy pedagogika bolani mustaqil qaror qabul qilishga, xatodan qo’rqmaslikka o’rgatishni muhim deb biladi. Ona esa pedagog sifatida “Men sening o’rningga qilaman” emas, “Qanday qilsak bo’ladi, o’ylab ko’raylik”, deya yondashishi lozim.

Agar ona farzandining kelajakda olim, tafakkur egasi, bo’lishini istar ekan, unga oddiy bola sifatida emas, balki fikri bor shaxs, savol berishga haqli inson sifatida murojaat qilishi lozim. Pedagodika shuni ta’kidlaydiki, bolaning tafakkuri unga berilgan savollardan emas, balki uning savollariga bo’lgan munosabatdan rivojlanadi. Farzandga murojaat ohangi ham muhim, uni buyruq bilan emas, hurmat bilan, xuddi olim bilan fikr almashyotgandek muloqot qilish bolaning o’z fikriga ishonchini oshiradi. Shunda bola bilishga intiladi, savol berishdan cho’chimaydi va o’rganishni mas’uliyat emas, ehtiyoj sifatida qabul qiladi.

Ana shunday muhitda ulg’aygan bolalar tarixda buyuk shaxslar sifatida namayon bo’lgan. Tasodif emaski, ko’plab mahshur olimlar va mutafakkirlar hayotiga nazar tashlasak, ularning ortida ilmga hurmat bilan qaragan, farzandi bilan teng muloqot qila olgan, savolni jazolamagan, balki rag’batlantirgan onalarni ko’ramiz. Bu onalar farzandini oddiygina tarbiyalagan emas ularni fikrlovchi shaxs sifatida voyaga yetkazib, ismlarini tarixga muxrlab ketgan onalardir. Mana shu onalarning go’zal namunasi sifatida Imom Buxoriyning onalarini keltirishimiz mumkin. Islom olamining buyuk muhaddisi Imom Buxoriy bolaligida ko’rish qobilyatini yo’qotgan paytda, onasi uni taqdirga tashlab qo’ymaydi. U ilmni farzandi uchun

najot deb biladi va tinimsiz duo qiladi. Rivoyatlarga ko’ra, onaning ixlosi va sabri sabab Imom Buxoriyning ko’zi tuzalgan. Eng muhimi, u farzandini ilm yo’lidan qaytarmaydi, balki uni ilmga yanada yaqinlashtiradi. Bu holat onaning ruhiy tayanchi va ishonchi bolaning kelajagini qanday o’zgartira olishini yaqqol ko’rsatadi. Bundan tashqari, Ibn Sinoning onasi Sitora xonim savodli, ziyoli ayol bo’lib, farzandining bilimga bo’lgan qiziqishini erta payqagan. U Ibn Sinoning savollarini befoyda deb bilmagan, aksincha, ularni rag’banlantirgan. Pedagodik nuqtayi nazardan qaraganda, bu ona farzandini bilishga bo’lgan ichki motivatsiyasini shakllantirgan. Natijada Ibn Sino yoshligidanoq murakkab fanlarni egallashga qodir bo’lgan buyuk allomaga aylangan.

Ushbu misollar shuni ko’rsatadiki, buyuk olimlarni yetishtirgan onalar farzandiga savol berish huquqini bergan, fikrini kamsitmagan, ilmni jazoga emas qadriyatga aylantirgan. Psixologiya buni ishonchli bog’lanish, pedagodika esa shaxsga yo’naltirilgan ta’lim deb ataydi. Genetika esa bu muhitda bolaning tabiiy salohiyati to’liq namoyon bo’lishini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR: Mazkur tahlillar shuni ko’rsatadiki, farzand tarbiyasida onaning roli psixologik, genetik va pedagogik jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega.Shu bois tarbiya masalasiga faqat oilaviy masala sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyotiga daxldor mas’uliyat sifatida qarash lozim.

Pedagodika va psixologiya fanlari asosida ota-onalarga quyidagi ilmiy tavsiyalarni berish mumkin;

1. Farzand bilan muloqotda hurmat va ishonchga asoslangan yondashuvni tanlash, uni fikrlovchi shaxs sifatida qabul qilish.
2. Bolaning savollarini cheklamaslik, aksincha, bilishga bo’lgan qiziqishini rag’batlantirish.
3. Tarbiyada shaxsiy namuna, mehr va talab muvozanatini doimiy saqlash.
4. Qiz va o’g’il farzand tarbiyasida teng pedagogik imkoniyatlarni yaratish.
5. Qiz farzandlarning ta’lim olishini kelajak avlod tarbiyasiga kiritilgan sarmoya sifatida anglash.

Alohida ta’kidlash lozimki, qiz farzandlarning o’qishiga to’sqinlik qilish nafaqat ularning shaxsiy rivojini, balki butun jamiyatning intelektual va ma’naviy taraqqiyotini cheklaydi. Chunki bugungi kunda qiz-ertangi ona, tarbiyachi va pedagogdir. Savodli, ongli va mustaqil fikrlovchi ayol esa nafaqat bir oilani, balki butun jamiyatni tarbiyalay oladigan kuchga ega. Shu bois qiz ta’limini cheklash emas, balki qo’llab-quvvatlash - sog’lom , barkamol, ilmli jamiyat qurishning eng muhim shartlaridan biridir. Bir ona tarbiyasi bir umrga tatigani kabi, bir qizning ta’limi ham kelajak avlodlar taqdirini belgilaydi. Shu jihatdan bugun barchamiz farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o’z ota - bobolariga, o’z tarixi, vatani, ona tili, millati, diniga va an’analariga sodiq bo’lib kamol topishsin. Buyuklarning onalaridan namuna olgan holda tarbiya beraylikki, bizning farzandlarimizning nomi ham tarixda muxrlanib qolsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Pedagogika asoslari. Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. — Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2.Bowlby J. Attachment and Loss. — New York: Basic Books, 1969.
3.Imom al-Buxoriy hayoti va ilmiy merosi. — Toshkent: Movarounnahr nashriyoti.
4.Ibn Sino. Hayoti va faoliyati. — Toshkent: Fan nashriyoti.
5.Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. — Toshkent.
6.Vygotsky L.S. Mind in Society. — Cambridge: Harvard University Press, 1978.